



SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI HARAKAT REJIMIGA OB-HAVO KO'RSATKICHLARINING TA'SIRI

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li

Andijon Mashinasozlik instituti doktranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8050118>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-June 2023 yil
Ma'qullandi: 15-June 2023 yil
Nashr qilindi: 17-June 2023 yil

KEY WORDS

Yo'lovchi, jamoat transporti, ob-havo ko'rsatkichlari, harorat, yo'nalish vaqti, namlik, yog'ingarchilik.

ABSTRACT

Jamoat transporti harakat jadvalini ishlab chiqishda marshrut vaqtida obg'havo sharoitlariga bog'liq ravishda yo'lovchilarning oqimi xisobga olinmaydi. Ob-havo ko'rsatkichlari jamoat transportlarida yo'lovchilar oqimini tahminiy, shuningdek, yo'lovchilar oqimini bashorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalaning ilmiy yondashuvi, avtobuslarning harakati davomida yo'lovchilar oqimining ob-havo ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqligini aniqlashni taqozo etadi. Maqolada yo'nalishli avtobuslarning ob-havo ko'rsatkichlari va yo'lovchilar oqimi orasidagi bog'liqliklar tadqiq etilgan.

Jamoat transportining harakatlanish tartiblari berilgan harakatlanish jadvaliga bog'liq, harakat jadvali esa odatda yo'lovchilarning talabi, yo'nalish masofasi, yo'nalishdagi avtobuslarning turlarini inobatga olgan xolda ishlab chiqiladi. Ob-havo sharoitlari jamoat transportlarida yo'lovchilar oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Jamoat transportining oldindan ishlab chiqilgan harakat jadvali asosida harakatlanishi ham bevosita ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Ob-havo sharoitlari to'g'ri va aniq xisobga olinishi natijasida jamoat transportlarining xizmat ko'rsatish sifati oshadi. Bu esa, yo'lovchilarning jamoat transporti xizmatidan foydalanish darajasining oshishiga, natijada tashish unumdorligi ortishiga olib keladi.

Jamoat transportini yo'nalishdagi harakati davomida yo'lovchilarning oqimi va yo'lovchilar oqimining o'zgarish ko'rsatkichlari kunlik yog'ingarchilik darajasiga, namgarchilikga, haroratga va mavsumga bog'liq bo'ladi. Yo'lovchilarga sotiladigan chiptalarning sotilish dinamikasini harakterlovchi ko'rsatkichlardan biri ob-havo sharoitlarning ta'siri hisoblanadi. Ob-havo sharoitlarining ichida jamoat transportlarida yo'lovchilar oqimiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar harorat va namlik hisoblanadi. Demak, jamoat transportlari harakati jadvalini ishlab chiqishda ob-havo sharoitlarini xisobga olgan xolda yo'lovchilar oqimini o'zgarishi dinamikasini bashorat qilish masalasi bo'yicha tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Mazkur masalalar yechimi bo'yicha dunyo tadqiqotchilari tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Department of Meteorology, Freie Universit"at Berlin, Germany tadqiqotchilari K M Nissen, N Becker, O D'ahne, M.Rabe, J.Scheffler, M Solle va U Ulbrichlar Berlin shaxrida ob-havo

sharoitlarini yo'lovchilar oqimiga qanday ta'sir etishi bo'yicha tadqiqot olib borishgan. Tadqiqotda Berlin shahri jamoat transportlarida yo'lovchilar oqimi chiptalarning sotilishi bo'yicha aniqlangan. Tahlillarda aynan 6 yoshdan katta yo'lovchilar va elektron to'lov asosida jamoat transportlaridan foydalanadigan yo'lovchilardan tashqari yo'lovchilar xisobga olingan. Berlin shahrida ob-havoning noqulay o'zgarishida sotilayotgan chiptalarning ulushi foizlangan va avtobus haydovchilari tomonidan sotilayotgan chiptalarning ulushi ob-havo sharoitlari noqulay vaqtlarda oshishi tahlil qilingan. [1]

Technological University Dublin - Blanchardstown Campus tadqiqotchilari Markus Hofmann va Margaret O'Mahonylar Ob-havo noqulayliklarini avtobuslarning ish ko'rsatkichlarini o'rganishgan. Tadqiqotda avtobuslarning harakat jadvalini tuzishda dispatcherlar ob-havo sharoitlarini inobatga olishlari buning tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot yilning 12 oyidagi ob-havo sharoitlarida yo'lovchilar oqimining o'zgarishi orasidagi bog'liqliklartahlil qilingan.[2]

Mahalliy ob-havo sharoitlarini avtobuslar yurish vaqtlariga bog'liqligi modellarini ishlab chiqish bo'yicha Institute of Future Cities, The Chinese University of Hong Kong, Shatin, New Territories, Hong Kong tadqiqotchisi Sui Taoa, va Jonathan Corcoranb, Francisco Rowec, Mark Hickmanlar tadqiqot olib borganlar. Tadqiqotda mintaqaning funksional imkoniyatlari bilan ob-havoning avtobuslarning soatlik harakatiga ta'sirini modellashtirilgan. Tadqiqot tranzit smart-kartalari ma'lumotlari to'plami va ob-havoning vaqt birliklaridagi batafsil o'lchovlarida avtobuslarning kechiktirilgan ta'sirlarini olish uchun xisoblab chiqilgan. [3]

Ob-havoning avtobuslarda harakatlanishiga ta'siri bo'yicha Queensland University of Technology, Australia tadqiqotchisi Syeed Anta Kashfi va Associate Professor Jonathan Bunker lar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqotda ob-havoning noqulay sharoitlarida avtobuslarning harakatiga ta'siri o'rganilgan. Avtobuslarning yo'nalish uzunligi va qatnov vaqtiga ob-havoning bog'liqlik masalalari va noqulay ob-havo sharoitida xususiy avtotransport vositalarining avtobuslarga ta'siri o'rganilgan. [4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR


Andijon shahrida jamoat transporti harakatini tashkil etish jarayondagi muammolarni hal etish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning jamoat transportlari harakatini tashkil etishdagi tajribalari, harakat davomida ta'sir etuvchi barcha omillar, jamoat transportlarida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullarini tahlil qildik, qiyoslash, analiz, sintez usullari orqali ular ishonchli xizmat ko'rsatish tadbirlarini keltirildi.[5,6]

Jamoat transportlarining harakat rejimiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyida ko'rib chiqiladi:

- Jamoat transportining xizmat ko'rsatishga shaylik darajasi;
- Jamoat transportining harakatini tashkil etilganligi;
- Yo'lovchilarning soni;
- Oraliq bekatlarning soni va yo'lovchilar aylanmasi;
- Yo'nalishdagi chorraxalar soni;
- Tirbandlik o'chog'lari soni va darajasi;
- Avtobus turi va sig'imi;
- Xaydovchining malakasi va yoshi;

- Yo'nalish kesib o'tadigan xududlar (axolish yashash joyi, axoli yashamaydigan joy, tik nishabliklar, rejadagi egriliklar, radius, xudud maqomi) ;

- Yo'nalish infratuzilmasining holati; - Ob-havo sharoiti: [7]



1-rasm. Jamoat transporti harakatiga asosiy ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari.

Jamoat transportlari harakatiga ob-havo ko'rsatkichlarining ta'siri butun yo'nalish bo'yicha teng taqsimlanadi. Jamoat transportlari oraliq bekatda turishlari, ob-havoning noqulay ko'rsatkichlarida yo'lovchilarning avtobuslarga chiqish - tushish vaqtlari bilan bog'liqligi uchun ta'sir qiladi.



2- rasm. Jamoat transportlari harakatiga ob-havo ko'rsatkichlari ta'siri umumiy sxemasi.


Jamoat transportlari harakati davomida to'liq ob-xavo ta'sirida bo'ladi. Shunday ekan jamoat transportlarida xizmat ko'rsatish sifati ham bevosita ob-xavo ko'rsatkichlariga bog'lik. [8]

Ob-havo ko'rsatkichlarining avtobuslarning shayligiga ta'siri asosan harorat past bo'lgan vaqtlarda namoyon bo'ladi. Yo'nalishda harakatlanish davomiyligida ob-havoning salbiy ta'sirlari asosan muzlamalarda tezlikning ma'lum darajada kamaytirilishi talab etilishiga, yog'ingarchilik va tuman sharoitlarida ko'rinish darajasining kamayishiga, yog'ingarchilik va past haroratda yo'lovchilar oqimining o'zgarishiga, avtobuslarning manevrchanligiga, yo'llardagi tirbandliklarning ko'payishiga bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu salbiy ta'sirlar jamoat transportlarining umumiy harakatlanish vaqtlarining ortishiga va xizmat ko'rsatish sifati pasayishiga sabab bo'ladi. Jamoat transportlarining yo'nalishdagi harakat vaqtini 35-40 % ni oraliq bekatlarda to'xtashga (turishga) sarflaydi. Marshrut vaqti va aloqa tezligi yuqoridagi ko'rsatkichlarning ta'siri davomida o'zgaradi.[9,10]

Bugungi kunda Andijon shahrining doimiy aholi soni 1,7 millionni tashkil etmoqda. 2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasiga 6 748 500 sayyoh tashrif buyurgan, shundan 9% sayyohlar ulushi Andijon shahriga to'g'ri kelmoqda. Andijon shahrida jamoat transportida tashilgan yo'lovchilar sonini tahlil qilsak jami 50 725 ming kishini tashkil qilmoqda. Andijon shahrida jamoat transportlaridan foydalanishda yo'lovchilarning tanlash imkoniyatlari mavjud.

Yo'lovchilar oqimini o'rganish haftaning ish kunlari va dam olish kunlarida amalga oshiriladi. Ob-havo sharoitlarining ta'siri dunyo olimlari tahliliga ko'ra dam olish kunlari jamoat transportida yo'lovchilar aylanmasiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Andijon shahrida jamoat transportlari yo'lovchilari oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil bu bayram kunlari va maktab, texnikum, va universitetlardan beriladigan ta'tillar vaqtidagi o'quvchi va talabalarning jamoat transportlaridan foydalanmasliklaridir. Tadqiqotlarga ko'ra ushbu ta'sir etuvchi omil jamoat transportlarining tig'iz vaqtlardagi harakatlarida o'z isbotini topadi bu vaqt oralig'i kun soatlarining ertalabki 7 - 9 oralig'iga o'g'ri keladi. Yo'lovchilar oqimini aniqlashning bir qancha usullari mavjud. Sotilgan yo'l chiptalariga nisbatan yo'lovchilar oqimini xisoblash va elektron, oylik to'lov kartochkalari asosida harakatlangan yo'lovchilar foizini unga qo'shish orqali aniqlash mumkin. Yo'lovchilar oqimini umumiy xisoblash xorijiy davlatlar tajribasida sotilgan chiptalar asosida amalga oshiriladi. Yo'lovchilar oqimi yomg'ir yog'ganda, muzlamada, namgarchilik past quruq kunlarda, ochiq havoli kunlarda ham nisbat asosida o'zgaruvchan bo'ladi. Dam olish kunlarining tungi vaqtlarda ob-havo noqulay vaqtlarida ham yo'lovchilarning oqimi sezlarli darajada kamayadi. Jamoat transporti harakatiga ob-havoning ta'sirini ikki usulda mutloq va nisbiy usullarda tadqiq etish maqsadga muvofiq. [13]

Mutloq usulda avtobus haydovchilariga bog'liq bo'lmagan tarzda yo'lovchilarning oqimi o'zgarishi nazarda tutiladi. Nisbiy usulda xaydovchilarning avtobusni boshqarishidagi ob-havo ta'sirlari bilan bog'liq harakat tushuniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki yo'lovchilar jamoat ransportlarini kutish vaqtlari va joylarining qulay bo'lishi ham ob-havo noqulay sharoitlarda yo'lovchilar oqimiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa jamoat transportlarida yo'lovchilar oqimiga bog'liq bo'ladi.



3-rasm. Andijon shahrining umumiy harorat va yog'ingarchilik o'rtachalashtirilgan ko'rsatkichlari(2022-yil bo'yicha)

Izox: Temperature – harorat

Rainfall – yog'ingarchilik ko'rsatkichi

Andijon shahrining yillar davomida eng yuqori harorat ko'rsatkichi iyul oyiga, eng past harorat esa yanvar oyiga to'g'ri keladi. Yog'ingarchilik ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori yog'ingarchilik yilning mart oyiga, eng past yog'ingarchilik ko'rsatkichi esa avgust oyiga to'g'ri keldi. Ylovchilar oqimini bashorat qilishda yil mavsumlaridagi ob-havo ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilgan xolda bajariladi. Asosiy yo'lovchilar oqimiga ta'sir etuvchi omillardan bo'lgan yog'ingarchilik va harorat ko'rsatkichlarini inobatga olga holda avtobuslarning harakat jadvalarini tuzish maqsadga muvofiq xisoblanadi. [14]

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jamoat transportlari harakatining ob-havo ko'rsatkichlarini inobatga olmagan holda tashkil etilishi avtobusning yo'nalishdagi harakat vaqtiga va xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijasida ob-havo ko'rsatkichlarini jamoat transporti harakat rejimida inobatga olmaslik xizmat sifatini pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Avtobuslarning marshrut vaqtlarining rejadan chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatuvchi bunday omillarni harakat jadvalini ishlab chiqishda hisobga olish maqsadga muvofiq. Harakat jadvalini ishlab chiqishda ob-havo ko'rsatkichlarini har birini hisobga olish, avtobuslarning harakat intervalini ta'minlash, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishning ishonchligini oshirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Халматов, М. М., Хожиматов, А., Хусанов, Д., & Исабоев, Т. (2017). ВЛИЯНИЕ ДЕРЕВЯННЫХ НАСАЖДЕНИЙ НА СОСТАВ И ЧИСТОТЫ ВОЗДУХА. In Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства (pp. 113-115).
2. Muhammato'vich, H. M., & Muxtorjonc, X. (2022). ELIMINATION OF POLLUTIONS IN THE ATMOSPHERIC AIR'RGANISH. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 6, 43-47.
3. Халматов, М. М., Исмаилходжаев, Б. Ш., Кабулова, Н. Ж., & Хусанов, Д. Д. (2021). ГЕОФИЗИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ АТМОСФЕРНЫХ ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ В АНДИЖАНЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ АЭРОДИНАМИКИ. Universum: химия и биология, (6-1 (84)), 30-34.

4. Halmatov, M. M., Ismayilkhodjaev, B. S., & Khamrakulov, A. G. (2019). GEOPHYSICAL MODELING OF THE DISTRIBUTION OF POLLUTANTS IN THE ATMOSPHERE OF ANDIJAN BASED ON THE AERODYNAMIC EQUATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 70-77.
5. Халматов, М., Хожиматов, А., Хамракулов, А. Г., & Хусанов, Д. Д. (2018). РОЛЬ ЗЕЛЁНЫХ НАСАЖДЕНИЙ В УЛУЧШЕНИИ МИКРОКЛИМАТА АТМОСФЕРНОЙ СРЕДЫ. *Наука и мир*, 2(12), 20-23.
6. Халматов, М. М., Хожиматов, А., Содиков, К., & Солижонов, С. Э. (2017). ВЛИЯНИЕ АТМОСФЕРНОЙ ПОГОДЫ НА МИКРОКЛИМАТ ДЕРЕВЯННЫХ НАСАЖДЕНИЙ. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 110-112).
7. Khalmatov, M., Khozhimatov, A., Khamrakulov, A. G., & Khusanov, D. D. (2013). THE ROLE OF GREEN SPACES IN IMPROVING THE MICROCLIMATE OF THE ATMOSPHERIC ENVIRONMENT. *SCIENCE AND WORLD*, 23
8. Ходжакулов, М. Н. (2022). ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НАСЕЛЕНИЯ К ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ И ДРУГИХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ. *Universum: технические науки*, (6-1 (99)), 18-20.
9. Ходжакулов, М. Н. (2022). ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НАСЕЛЕНИЯ К ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ И ДРУГИХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ. *Universum: технические науки*, (6-1 (99)), 18-20.
10. Ходжакулов, М. Н. (2021). ПРОБЛЕМЫ РАДИАЦИОННОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. *Universum: технические науки*, (5-1 (86)), 27-31.
11. Кабулова, Н. Д., Ходжакулов, М. Н., & Рахимов, Д. Б. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Universum: технические науки*, (7-1 (88)), 14-17.
12. Khodjakulov Mukhtorjon, & Rakhimov Dilmurad (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. *Universum: технические науки*, (6-6 (99)), 51-54.
13. Yulchiyev, D. R. O. G. L., Khodjakulov, M. N., & Muxabbatxon, G. (2022). THE IMPORTANCE OF USING SOFTWARE (SEARCH AND INFORMATION MAP SERVICE, GEOLOCATION) IN FIRE VEHICLES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Scientific progress*, 3(2), 82-89.
14. Ходжакулов, М. Н. (2020). Модель обучения «5+ 1» и его применение при подготовке специалистов в высших учебных заведениях. *Universum: психология и образование*, (9 (75)), 7-12.
15. Yakubova Barno Baxtiyorovna. (2023). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE – TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2(3), 143-148.
16. Якубова, Б. Б. (2019). Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов. In *Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования* (pp. 291-295).

17. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). Independent Thinking in Graphic Education Application of Reinforced Interactive Methods. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 15, 1-3.
18. Bakhtiyorovna, Y. B. (2021). Independent work of students through the internet pedagogical conditions of organization.
19. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). CREATIVENESS AND CREATIVENESS IN A PERSON THE NEED FOR THE DEVELOPMENT OF ADJECTIVES. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 56-58.
20. Madaminjonovich, Q. H. (2022). Aholi zich yashaydigan hududlar ekotizimlari boshqaruvi: qurilishda atrof-muhitni boshqarishning ekologik va iqtisodiy samaradorligi. Journal of new century innovations, 3.
21. Tadjiboev Bunyodbek Qosimjon o'g'li. (2023). MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TAMOYILLARI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 2(2), 42-51.
22. Мухиддинов, М. К. (2022). IMAGE OF THE PROPHET. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 2(1).
23. Мухиддинов, Муслихиддин Кутбиддинович (2023). "СЎЗ ГУҲАРИ...". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 786-793.
24. Mukhiddinov, M. (2023). Wisdom in the Praises of the Epic" Saddi Iskandariy". Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(5), 210-214.
25. MUHIDDINOV, M., & ELTAZAROV, J. ALİ ŞİR NEVÂÛİNİN ESERLERİNDE KÂMİL İNSAN KAVRAMININ YORUMU VE ONUN ÇAĞDAŞ «İNSANİ GELİŞİM» DÜŞÜNCESİYLE FELSEFİ-ESTETİK AÇIDAN BAĞLANTILARI 1. Giriş.
26. Muhiddinov, M. (2015). Komil inson–adabiyot ideali. Toshkent. Ma'naviyat.
27. Мухиддинов, М. (1998). Ўн тўққиз чемпион. Т.: Юлдузча.
28. Мухиддинов, М. (2007). Нурли қалблар гулшани. Т.: Фан.
29. Б МУҲИТДИНОВА (2022). МУНОСИБ ТУҲФА. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 2(3), 167-169.
30. Badia Muhitdinova. A WORTHY GIFT. Alisher Navoi. 2022, vol. 2, issue 3, pp.167- 169.
31. Мухитдинова Б.М (2022). ПУБЛИЦИСТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САИДАХМАДА ВАСЛИ САМАРКАНДИ. КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В СТРАТЕГИИ «ОБЩЕСТВО 5.0» сборник материалов конференции. Том 1. Набережночелнинский институт Казанского Федерального университета. Казань, 158-161.
32. Мухитдинова, Б. М. (2021). THE IDEOLOGICAL DIRECTION AND MAIN ARTISTIC IMAGES OF DASTANS "KHUSRAV AND SHIRIN" AND "FARHOD AND SHIRIN". ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(1).
33. Nazmiya, M. (2019). IDEALOGICAL-ARTISTIC CONCERN IN THE CREATION OF KHUSROW DEHLAVI AND ALISHER NAVOI. Глобус, (9 (42)), 43-45.
34. Muhitdinova, N. M. (2021). Interpretation of mystical themes in Mirhasan Sadoi and muhammad ghazi's collection of poems. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 538-548.
35. Muslihiddinovna, M. N., & Fatkhiddinovna, K. S. (2019). The comparative character analysis of farhad and majnun in epic poems by alisher navai. Test Engineering and

Management, 81(11-12), 4198-4206.

36. Mukhitdinova, N. M. (2016). TRADITIONS OF BOBORAKHIM MASHRAB IN CREATIVE ACTIVITY OF KHOZHANAZAR KHUVAYDO. Международный научно-исследовательский журнал, (4 (46) Part 4), 61-64.

37. Мухитдинова, Н. (2021). SADOIY VA G 'OZIY DEVONLARIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARI (HAMD, NA'T, MUNOJOT VA MANQABAT MAVZULARIDAGI G 'AZALLAR MISOLIDA). ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).

38. Sh, S. B. (2023). ACTIVITIES OF THE ADVISORY COUNCIL (SUPREME COUNCIL) IN THE KOKAND KHANATE.

39. Шамшиддинов, Б. Ш. Ў. (2022). СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ФАРФОНА ВОДИЙСИГА МАЪМУРИЙ СОХАДА КИРИТГАН ЯНГИЛИКЛАРИ. Science and innovation, 1, 21-24.

